



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 6-avgust

386-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 18-iyuldagi PQ-269-son qarori ijrosi haqida” 353-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida.

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 18-iyuldagi PQ-269-son qarori ijrosi haqida” 353-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 18-iyuldagi PQ-269-son qarori ijrosi haqida” 353-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-269-son qarori bilan:

a) 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston Respublikasidagi davlat oliy ta‘lim muassasalarida turizm va mehmonxona xo‘jaligi sohalarida kadrlar tayyorlash tizimi uch yillik oliy ta‘lim dasturlari asosida yo‘lga qo‘yilishi va o‘quv jarayoni “blok-modul” tizimiga asoslangan dual ta‘lim shaklida tashkil etilishi;

bunda, o‘quv jarayonlarining nazariy va amaliy mashg‘ulotlar ulushini:

birinchi bosqichda – 80 foiz nazariy va 20 foiz amaliy;

ikkinchi bosqichda – 50 foiz nazariy va 50 foiz amaliy;

uchinchi bosqichda – 30 foiz nazariy va 70 foiz amaliy bo‘lishi nazarda tutilishi;

b) 2024-yil 1-avgustdan boshlab:

turizm sohasida kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini amaliyot bilan birga olib borish maqsadida ularning hududlarida budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan

yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan amaliyot bazalarini (turoperator, turagent, gid-tarjimon, mehmonxona va turizm transportxizmatlarini ko'rsatish obyektlari (keyingi o'rinlarda – xizmatlar ko'rsatish obyektlari) belgilangan tartibda tashkil etishga ruxsat berilishi;

2027-yil 1-yanvarga qadar turizm sohasida kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining amaliyot bazalarida ko'rsatilgan xizmatlar uchun foyda solig'i ushbu soliq bo'yicha belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 50 foizga kamaytirilgan stavkada to'lanishi;

bunda, ushbu soliq imtiyozini qo'llash natijasida bo'shaydigan mablag'lar tashkil etilayotgan xizmatlar ko'rsatish obyektlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga yo'naltirilishi;

2024-2025-yillarda turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda oliy ta'lim muassasalari tomonidan hududlarda turizmni rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

2025-2026-o'quv yilidan boshlab Samarqand shahridagi Xalqaro turizm akademiyasida (keyingi o'rinlarda - Akademiya) mehmonxonalar va restoranlar uchun yuqori malakali xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni tayyorlash yo'lga qo'yilishi;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ikki oy muddatda turistlarga xizmat ko'rsatuvchi gid-tarjimonlar sonini oshirish maqsadida 2-ilovaga muvofiq oliy ta'lim muassasalari huzurida shartnoma asosida arab, yapon, xitoy, hind, ispan, italyan, koreys, urdu, indonez va malay tillarida xizmat ko'rsatuvchi gid-tarjimonlarni tayyorlash bo'yicha kurslarni tashkil etish vazifasi yuklatilganligi;

belgilanishicha:

2024-yil 1-oktabrdan boshlab qarorga 2-ilovada ko'rsatilgan oliy ta'lim muassasalarida arab, yapon, xitoy, hind, ispan, italyan, koreys, urdu, indonez va malay tillarida xizmat ko'rsatuvchi gid-tarjimonlarni tayyorlash kurslarini tashkil etish xarajatlarining 30 foizi oliy ta'lim muassasalarining so'roviga ko'ra Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan uch yil davomida qoplab berilishi;

Akademiya Samarqand shahar, Bobur Mirzo ko'chasi, 3a-uy manzilidagi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetiga qarashli binoga bepul joylashtirilishi;

belgilanishicha:

muassasalar xodimlari mehnatga haq to'lashda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-iyundagi "Davlat madaniyat muassasalari va davlat arxivlari xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirishning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash haqida"gi 458-son qaroriga muvofiq tegishli muassasalar uchun belgilangan shart-sharoitlar tatbiq etilishi ko'rsatib o'tilganligi e'tiborga olinsin.

3. Viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

2024-2025-yillarda turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda oliy ta'lim muassasalari tomonidan hududlarda turizmni rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosarlari Sh.Umaraliyev va J.Raximov mas’ul bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda mazkur qarorga ilova sifatida tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari J.Raximov va Sh.Umaraliyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b



B.Muydinov